

**ESKI AXSI SHAHAR YODGORLIGINING ARXEOLOGIK
TOPOGRAFIKASI
(arxeologik tadqiqotlar asosida)**

Xoldorov Jamshidbek

Namangan viloyat tarixi va madaniyati
davlat muzeyi ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan Eski Axsi (Axsikent) arxeologik yodgorligining arxeologik jihatdan o‘rganilish orqali arxeolog olimlarning yodgorlik topografik xaritasini yaratish maqsadida olib borilgan ishlar natijasi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari bugungi kunda arxeologiya parki uchun tanlangan ushbu yodgorlikning tarixiy ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Eski Axsi, qo‘rg‘on, shaxriston, rabod, shurf, hamom, tanga, “Ochiq osmon ostida muzey”, arxeologiya.

Axsikent – Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohlida joylashgan qadimgi shahar harobasi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Axsikent shahri mil. avv. III-II asrlarda vujudga kelgan, IX-X asrlarda Farg‘ona vodiysi poytaxti bo‘lgan.

Axsikent yodgorligi o‘zbek xalqi madaniyati tarixida muhim o‘rin tutganligi uchun 1950 yildan davlat muhofazasiga olingan. «Tarixida hali yozib tugatilmagan sahifalari mavjud bo‘lgan xalq baxtlidir», degan edi shotlandiyalik tarixchi va faylasuf Tomas Karleyl. Xalqimiz o‘zining boy va faxrlansa arzigelik tarixiga ega. O‘tmishimizni xolisona o‘rganish uchun ilmiy manbalarimiz esa, yanada yetarli.

Vatan tarixchilar oldida turgan galdeg'i vazifalardan biri birlamchi mo‘tabar manbalarimiz asosida yurtimizning haqqoniy tarixini yoritishdir. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 24 mayda qabul qilingan «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2995-soni qarori bu sohadagi ishlarni jonlantirish uchun muhim omil bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri sifatida «Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, ularni to‘plib, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish,

farzandlarimizni shu ulug‘ merosga munosib etib tarbiyalash» ekanligini ko‘rsatib o‘tdi.

O‘zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan hisoblanadi. Bunga Vatanimiz hududidan topib o‘rganilgan qadimi shaharlarimiz yaqqol guvohlik qilib turibdi. Farg‘ona vodiysi xususan, Namangan viloyatida o‘zining yuksak tarixiy qiymatiga ega bo‘lgan ko‘plab yodgorliklar mavjud. Bularning ichida Axsikent alohida o‘rin tutadi. Qadimshunos olimlar tomonidan «Farg‘ona Afrosiyobi», deya ta’rif berilgan Axsikent Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev 2016 yilning 2 noyabrida Namangan viloyati saylovchilar vakillari bilan bilan uchrashuvdagi nutqida viloyatdagi arxeologik va me’moriy yodgorliklar haqida o‘zlarining quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edi: «...Bu diyordagi mashhur Axsikent, Munchoqtepa, Ayritom, Mug‘tepa kabi me’moriy yodgorliklar o‘tmishda ushbu hududda o‘ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi».

Axsikent - yozma manbalarining guvohlik berishicha, Farg‘ona vodiysidagi eng qadimgi poytaxt va shahar hisoblanadi¹. Shahar o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutib, juda ko‘p sultanatlar uchun poytaxt vazifasini o‘tagan. 1621 yilgi kuchli zilzila oqibatida esa vayron bo‘lgan va qayta tiklanmagan.

Axsikentni arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asr oxirlari XX asr boshlaridan boshlangan. 1885 yil N. I. Veselovskip, 1914 yil I. A. Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida M. Ye. Masson (1939) va A. N. Bernshtam (1948)lar tekshirganlar².

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Axsikent ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lganligi, shaharning uch qismi ham alohida devorlar bilan o‘ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome masjidi, pishiq g‘ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar, rabodda hunarmandlar mahallalari va tashqi bozor mavjud bo‘lganligi aniqlangan. Axsikent Chulanov boshchiligidagi Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o‘rganilgan (1957 – 59). 1960 yildan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti uyushtirgan maxsus ekspeditsiya Axsikent rabodidan XI asrga oid ko‘hna hammom o‘rnini ochgan.

U yerdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, Axsikent harobalaridan g‘arbraqda o‘rta asrlarga oid yana bir shahar harobalari borligi aniqlangan. Akademik Ya. F. G‘ulomov va arxeolog I. Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar bo‘lganligini,

¹ Хўжаев А. «Қадимги Фарғона давлатининг илк пойтахти ҳақида». Водийнома 2016 №2.

² Чуланов Г. «Городище Ахсикент». Советская археология 1963 №3.\

ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tug‘ilgan Axsi ekanligini bиринчи bo‘lib isbotladilar. 1967 yil rassom I. A. Smirnov A. harobalaridan yig‘ib jamlagan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeysiiga taqdim etgan¹.

Axsikentni XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘rgangan rus sharqshunos va arxeolog olimlaridan, akademiklar A.Middendorf va V.V.Bartold, professorlardan N.I.Veselovskiy hamda A.N.Bernshtam, tadqiqotchi-sharqshunoslар I.A.Kastane, V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.Pavlov va boshqalar Axsi, Axsikat yoki Axsikent, deganda faqatgina bitta makon — Sirdaryoning o‘ng qирг‘ог‘идаги joylashgan Eski Axsi yodgorligini nazarda tutishgan². Hisob-kitoblarga ko‘ra Eski Axsi Farg‘она vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Bu shahar Sirdaryoning o‘ng qирг‘ог‘ида, Namangan shahridan 25 km janubi-g‘arbda, Gulqishloq va Shaxand qishloqlari yaqinida joylashgan. Tadqiqotlar jarayonida Eski Axsi qal‘a (ko‘handizark), shaxriston (Axsi I A, Axsi I B) va rabod (Axsi II, Axsi III, Axsi IV) qoldiqlaridan iborat ekanligi aniqlangan. Qal‘a Shahristonning janubi-g‘arbiy burchagida joylashgan. Uning 100-80x30-8 metr o‘chamda uchburchak tuzilishda saqlanib qolgan qismining janubiy va janubi-g‘arbiy tomonlarida Sirdaryo tomonidan yemirilgan bo‘lsa, shimoldan va shimoli-sharqdan kengligi 10 metrdan oshgan chuqur xandaq bilan shaharning qo‘shti qismlari qal‘adan ajratilgan. Tashqarida, qal‘aning shimoli-g‘arbiy burchagida to‘sinq bor bo‘lib, u erda, shubhasiz, qal‘ani shahriston bilan bog‘laydigan osma ko‘priq bo‘lgan. Quyida ushbu shahar-yodgorligining bugubgi kundagi topografik, geologik hoati haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Aksi IA - ichki shahriston u rejada to‘rtburchaklar shaklga ega bo‘lib, saqlanib qolgan 8 гектар maydonga ega³. Mikrorelefda uning uch tomonida (janubiy qismidan tashqari) dehqonlar qadimda yashagan ekanligini kuzatish mumkin. A.N. Bernshtam tomonidan o‘tgan asrning 40-yillarning oxirida belgilangan Axsi IA devorlarida uchta minora mavjud edi. Hozir ularning o‘rnini aniqlash va qayd etib o‘tish juda qiyin. 1950-1960-yillardagi ishlar jarayonida, shimoliy devorlarning deyarli yarmi zarar ko‘rganligini kuzatish mumkin bo‘ladi. Bunda Janubi-g‘arbiy va markaziy hududlardagi qismlar ayniqsa qattiq talofat ko‘rgan. 1930-1940 yillarda taxminan 20-25 yil davomida kolxozlar bu yerdan yer va undan o‘g‘it sifatida foydalanishadi. Natijada Bu yerga shakllangan katta chuqurning uzunligi g‘arbdan sharqqa 200

¹ Анарбаев А.А., Ахрапов И.А. Водоснабжение средневекового города Ферганы (по материалам Аксикета) // ТД Конференции, посв. 80-летию Я.Г. Гулямова. С. 19-20. Ташкент, 1988.

² Анарбаев А.А. Аксикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СА. №1. С. 174-187. М., 1988. Анарбаев, 1988.

³ Анарбаев А. Ильясова С. «Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси». O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 2000 №27 212 с.

metrdan ortiq, kengligi 10 dan 50 metrgacha, chuqurligi joylarda 10 metrgacha bo‘lgan qatlamlar vayron qilingan. XI asr oxiri XIII asr va ba’zi joylarda bir yarim ming yilliklar davomida shakllangan madaniy qatlamlardan hech narsa qolmagan.

Shimoliy va sharqi devorlarda mikrorelef bo‘ylab chuqur ariq va shahar darvozalari qayd etilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ichki shahristonning janubiy tomonidagi daryo bo‘ylab o‘tkir jarlikka aylangan. G‘arbiy tomoni avtomobil yo‘li uchun tekislangan. Axsi IA qal’a devori (sharqda) va qal’aning chuqur xandaqi (g‘arbda) o‘rtasida joylashgan ekanligi arxeologik tadqiqotlar jarayonida aniqlangan. Birinchi shahristonda bu joy alohida o‘rin tutadi. Mikrorelefga ko‘ra, bu hudud o‘zining alohida joylashuvi va qal’aga yaqinligi bilan ajralib turadi. Sharqdan g‘arbgan hududni ikki qismga - shimoliy va janubga bo‘lib turadigan qal’a shaklidagi devor cho‘zilganligi ma’lum. Massivning janubiy qismi ancha tekis bo‘lib, markazga qarab sezilarli pasayish kuzatiladi, bu erda chuqurlik mavjud. Maydon yuzasida ko‘plab kuygan g‘isht parchalari sochilib yotadi. Massivning shimoliy qismi nisbatan baland bo‘lib, g‘arbiy qismida ham chuqurliklar mavjud. Garchi ba’zi past tepaliklar bo‘lishiga qaramay Axsi IA shimoli-g‘arbiy yarmining relyefi silliqroq. Ayniqsa, shlaklangan lyoss, shlak, tigel va sopol buyumlar bo‘laklarining davriy sanasi X-XI asrlarga oid qayd etilganligini alohida ta’kidlash lozim(Axsi I.A.)¹.

Axsi IB - 20 gektardan ortiq saqlanib qolgan ikkinchi yirik shaxriston rejasida Axsi IA kabi to‘rtburchaklar shaklga ega. Ikki tarafdag‘i (shimoliy va sharqi) mikrorelefda kuchli qal’a devorlari ajralib turadi, ularda minoralar uchun olingan balandligi 2 metrdan 5 metrgacha bo‘lgan 20 dan ortiq turli tepaliklar qayd etilgan.

Axsi IB devorlari nisbatan yaxshi saqlangan. Qisman vayronagarchilik faqat shimoliy devorda qayd etilgan va minora qoldiqlari bilan sharqi devor ancha yaxshi saqlanib qolgan. Shimoliy va sharqi devorlar bo‘ylab chuqur va juda keng xandaqni kuzatish mumkin. Axsi IB ning janubiy tomoni Sirdaryoga keskin jarlikka aylanib ketgan, g‘arb va shimaldan Axsi IA dan chuqur va unchalik keng bo‘lmagan xandaq bilan ajratilgan. Axsi IB bo‘ylab shlaklangan lyess, krakerlar, shlaklar va tigellar bo‘laklari qayd etilgan. Mikrorelefga ko‘ra, to‘qqizta nuqtada to‘rtta asosiy ko‘cha, ikkita shahar darvozasi, katta bozor maydoni va shahar uylari aniqlangan. Ikkita joyda pishiq g‘ishtdan yasalgan yer osti suv quvurlari qayd etilgan. Janubi-sharqi qismida kuygan g‘ishtdan qurilgan qoyadan tazor (drenaj chiqishi) topilgan. Aytish joizki, 1950—1960-yillarda xo‘jalik ishlari olib borilganda bozor maydonidan shimoli-g‘arbdagi ikki hududda 2-3 metrga ikkinchi shahristonning sirti olib tashlangan.

Bir paytlar yagona tashqi shahar - Robod hozir parchalangan holda saqlanib qolgan. Uning asosiy qismi 1930-1940 yillarda xo‘jalik yuritish vaqtida vayron

¹ Абдулхамид Анарбаев «Ахсикет - столица древней Ферганы» Ташкент. «Tafakkur» 2013

qilingan. Gulqishloq qishlog‘idagi uylar ancha katta maydonni egallaydi. Saqlanib qolgan rabod Aksi II, Aksi III, Aksi IV nomlari bilan belgilangan¹.

Aksi II g‘arbdan Shahriston. Ularni Jamashuyga olib boradigan zamonaviy yo‘l va 1940-50 yillarda shakllangan katta kanyon ajratib turadi. G‘isht zavodining ishlashi madaniy qatlamlarni butunlay vayron qilgan. Bu maydon rabod, shahristondan farqli o‘laroq, yomon vayron qilingan. Aksi II ning sharqiy, janubiy va g‘arbiy yuzlari Sirdaryo tomon o‘tkir qoya bilan tugaydi. Shimoliy tomonida mustahkam devor o‘rni mavjud. Janubiy yarmida o‘rta asr qatlamlari butunlay vayron qilingan. Bu yerda so‘ngi o‘rta asrlarga oid uchta g‘isht pechi qayd etilgan. Ularning janubi-g‘arbida, tepalikda bir necha yangi qabrlar joylashgan. Markaziy qismning relyefi ancha tekis tomonlari 50x70 m, garchi shimolda bu massiv tepaliklar bilan cheklangan. Sharqiy yarmini egallagan zamonaviy qabriston sababli Aksi II Shimoliy va shimoli-g‘arbiy maydonlari yomon saqlangan. Bundan tashqari bu hududda chiqindi suvlar natijasida chuqur jarliklar vujudga kelgan. Faqat orasida jarliklar va jarliklar qoldiq shaklida kichik qismlarni saqlab qolgan. Bu yerda sharqiy rabodning saqlanib qolgan qismi qoyalar va jarliklar bilan birlashtirilgan 10 gektarni tashkil etadi.

Aksi III sharqda joylashgan shahriston qal'a devoridan sharqda qishloq hududidan janubda joylashgan. Aksi III ham xuddi Aksi II kabi chiqindi suvlar va Sirdaryo oqimi natijasida qattiq shikastlangan. Natijada joylarda shakllangan madaniy qatlamlar vayron bo‘lgan va chuqur kanyonlar paydo bo‘lgan.

Aksi IV ning asosiy qismi ostida paxta ekinlari uchun o‘zlashtirilgan. Shimoli-g‘arbiy qismini zamonaviy turar-joy binolari egallagan. Ulardan ba’zilari ikkinchi qal'a devoriga yaqin joylashgan. Shunday qilib, o‘rta asrlarga oid 30-35 gektarga yaqin rabod qismi saqlanib qolgan, chunki uning asosiy qismi ekin maydonlari uchun o‘zlashtirilgan.

2017 yil 16 oktyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida «Axsikent» arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida» 831-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida majmuani saqlash, uning ish faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida viloyat hokimligi muassisligida davlat unitar korxonasi shaklidagi «Axsikent» arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi tashkil etildi. O‘tgan bir yil davomida direksiya tomonidan 3ta yirik anjuman tashkil etildi, kitoblar nashr etildi. Shaharning haqqoniy tarixini yaratish, uni xalqaro turizm go‘sasiga aylantirish borasida talay ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Shunisi e’tiborliki, direksiya ilmiy xodimlari Axsikent

¹ Абдулхамид Анарбаев «Аксикет - столица древней Ферганы» Ташкент. «Tafakkur» 2013

tarixini birlamchi ilmiy manbalarga tayangan holda ayrim muammoli masalalarga oydinliklar kiritishga muvaffaq bo‘lishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдулхамид Анарбаев «Ахсикет - столица древней Ферганы» Ташкент. «Tafakkur» 2013
2. Анарбаев А. Ильясова С. «Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси». O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 2000 №27 212 с.
3. Анарбаев А.А. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // СА. №1. С. 174-187. М., 1988. Анарбаев, 1988.
4. Анарбаев А.А. Исследования на городище Эски Ахсы // АО 1985 года. С. 586. М., 1987. Анарбаев, 1988.
5. Анарбаев А.А., Ахрапов И.А. Водоснабжение средневекового города Ферганы (по материалам Ахсикета) // ТД Конференции, посв. 80-летию Я.Г. Гулямова. С. 19-20. Ташкент, 1988.
6. Анарбаев, 1983. Анарбаев А.А. Работы на городище Ахсикет // АО 1981 года. С. 450. М., 1983. Анарбаев, 1987.
7. Хўжаев А. «Қадимги Фарғона давлатининг илк пойтахти ҳақида». Водийнома 2016 №2.
8. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». Советская археология 1963 №3.